yozuvchi kisenlar hayoti, Yashma va Liliyaning bolalik va o‘smirlik yillari, kiban maktabi, maktabga boshchilik qilayotgan tajribali kurtizanlar, ularning yashirin tarzda siyosiy jarayonlardagi ishtiroki tasvirlangan. Muallif mazkur sujet chizig‘ida kisenlarga qo‘yiladigan talablarni kiban maktabi faoliyatida ochib beradi. Tasodifan Hilol bilan bo‘lib o‘tgan ko‘ngilsiz voqea sabab, ular yashash joylarini Seulga ko‘chirib o‘tkazdilar.

Asarning ikkinchi chizig‘ida Yashma, Hilol va Liliyaning zamonaviy teatrlarda birinchi chiqishlari, kiban maktabida o‘rgangan qo‘shiqchilik hamda raqsga tushish san’ati ularning keyingi hayotini belgilab berganligi tasvirlanadi. Muallif koreys milliy teatrining, bir tomondan, mahalliy madaniyat, ikkinchi tomondan, g‘arb madaniyati ta’sirida o‘zgarishlarga uchragani, mazkur davrda teatr san’atining rivojlanishi uchun turtki bergan ichki va tashqi omillar, teatrlar o‘rtasida yuzaga kelgan raqobat haqida hikoya qiladi, xronotop – 1925–1937-yillar, Koreya, Seul shahri.

Uchinchi chiziq mamlakatning qisqa muddatli ozodlik yillari, fuqarolar urushi davri, urushdan keyingi qatag‘onlik siyosati, kisenlar duch kelgan jiddiy muammolar, teatr san’ati inqirozi, qashshoqlik, yaqinlarini yo‘qotganligi sababli Seuldan Pusanga ko‘chib o‘tgan Yashma, turmushi buzilgan, avval, ichkilikka mukkasidan berilib ketgan, so‘ng opasi Hilolning oldiga – Amerikaga ketgan Liliyalar hayotining so‘nggi damlari tasvirlangan. Xronotop – 1964 yil, Koreya, Chejudo oroli, Amerika.

Xulosa va takliflar. Romanda kisenlar obrazi romanning yadrosi hisoblanadi, har bir qahramon bilan bog‘liq voqea-hodisa kisen obrazi bilan uzviy bog‘lanib ketadi. Ayrim lavhalarda roman qahramonlari qarashlari kisenlar fikri bilan uyg‘un kelsa, ayrim lavhalarda ziddiyat yuzaga keladi, qarama-qarshilikda millatning arxaistlari hamda ma’rifatparvarlari qiyofasi gavdalanadi. Muallif o‘zining estetik qarashlarini, davr manzarasini mana shu ziddiyat zamiriga singdiradi.

Romanda mamlakatda keng quloch yoygan teatr san’ati, teatrlarda ijro etilayotgan rollar, millat ongini uyg‘otishga qaratilgan ma’rifatparvarlik harakatlari, xalq savodxonligini oshirishda matbuotning o‘rni, mumtoz davr asarlarini nafaqat xangilga o‘girish, balki sahnalashtirish orqali xalqning o‘zligini yodga solish kabi masalalar ishonarli tasvirlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Кон Ги Джунг и др. Янгбаны-правящее сословие в традиционном обществе Кореи периода Чосон (XV–до начала XX вв.). Сеул, Корея, 2013, 164 с.

(2). Klassik koreys nasri antologiyasi. Tuzuvchilar: U.Saydazimova, Choi So Yong va boshq. Toshkent, “Istiqlol”, 2013, 504-bet.

(3). Рифтина Б.Л., Концевич Л.Р., Ткачева М.В. Сборник. Москва, 1975, 896 с.

(4). “용재총화해제” (김두종, “국역 대동야승” 1, 민족문화추진회, 1971, 402. 쪽.

(5). “용재총화해설” (성락훈, “오늘의 사상대전집” 8, 동화출판공사, 1972, 621. 쪽.

(6). 조선 전기의 문・학자인 성현 (成俔) 의 수필집. 활자본. 3권 3책. 1525년 (중종 20) 에 경주.362. 쪽.

(7). 김현룡. “옛 고전에서 전해오는 조선왕조 500년 유머”, 대한민국 자유문학사, 2003, 462. 쪽.

(8). 김주혜. “작은 땅의 야수들”. 경기도: 다산북스, 2022, 603.쪽.

(9). 성현. 용재총화. 지식을 만드는 지식, 2014, 778.쪽.

(10). 투데이충남 (https://www.todaychungnam.net) 성주 그리고 성주 기생 성산월

Usenova Qizlargul Ubaydullaevna (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti “Amaliy filologiya” kafedrasi dotsenti v.v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);
email: qizlargulusenova@gmail.com)

QORAQALPOQ BOLALAR FOLKLORIDA SINONIMLARNING QO‘LLANILISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qoraqalpoq bolalar folklori tilida sinonim so‘zlarning qo‘llanilishi, ularning bolaning yoshga bog‘liq leksikonida shakllanishi, sinonimlarning bolaning tafakkuriga ta’sir ko‘rsatishi, uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga, so‘z boyligini takomillashtirishdagi xizmati masalasi o‘rganildi. Qoraqalpoq bolalar folklori tilidagi sinonimlar ma’nodosh yoki ideografik, emotsional-ekspressiv va stilistik sinonimlarga bo‘lib ko‘rib chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *bolalar folklori, bolaning fikrlash qobiliyati, lug‘at tarkibi, sinonim, sinonimlarning leksik-semantik va stilistik xususiyatlari.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СИНОНИМОВ В КАРАКАЛПАКСКОМ ДЕТСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ

Аннотация. *В данной статье рассматривается использование синонимов в языке каракалпакского детского фольклора, их формирование в возрастном лексиконе ребенка, влияние синонимов на мышление ребенка, их роль в физическом и умственном развитии, а также в совершенст-*

вовании словарного запаса. Синонимы в языке каракалпакского детского фольклора разделены на семантические или идеографические, эмоционально-экспрессивные и стилистические синонимы.

Ключевые слова: *детский фольклор, способность ребенка мыслить, словарный состав, синоним, лексико-семантические и стилистические особенности синонимов.*

THE USE OF SYNONYMS IN KARAKALPAK CHILDREN'S FOLKLORE

Annotation. *This article examines the use of synonyms in the language of Karakalpak children's folklore, their formation in a child's age-related lexicon, the influence of synonyms on a child's thinking, their role in physical and mental development, and the improvement of vocabulary. Synonyms in the language of Karakalpak children's folklore were divided into semantic or ideographic, emotional-expressive and stylistic synonyms.*

Keywords: *children's folklore, a child's thinking ability, vocabulary, synonym, lexico-semantic and stylistic features of synonyms.*

Kirish. Tilning rivojlanishi va takomillashuvi uning leksikasida koʻrinadi. Qaysi xalqning folklor asari boʻlmasin, leksikasini oʻrganish orqali biz oʻsha xalqning til xususiyati bilan tanishamiz va leksikasining qanday darajada boy ekanligini bilamiz. Xalq folklor asarlariga boy boʻlgan sari, shu tilning sinonimi ham rivojlangan boʻladi. Folklordagi sinonimlarni toʻplash va ularni oʻrganish muhim ahamiyatga ega. Chunki xalq ogʻzaki ijodi, shu jumladan, bolalar folkloridagi sinonimlar gapni ta'sirli qilib, stilistik jihatdan badiiylashtirib, tasvirlab berishga yordam beradi. Ular leksik vosita sifatida bolalar folklori tilining ta'sirchan, badiiy boʻlishiga xizmat qilib, bolalar sinonimik ma'nolarni oʻrganib, aytiladigan fikrga mos zarur variantini toʻgʻri foydalanishni oʻrganadi.

Bolalarga moʻljallangan folklor asarlari bolalarning ruhiy dunyosini oʻzlarining yosh xususiyatlariga mos ravishda boyitadi. Biroq ular boʻyicha lingvistik aspektda tadqiqotlar va ilmiy ishlar oz sonni tashkil etadi. Shuning uchun qoraqalpoqlarning boy madaniy meroslaridan boʻlgan xalq ogʻzaki ijodlarini, ayniqsa, bolalar folklori tilidagi sinonimlarni oʻrganish qoraqalpoq tilshunosligidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Sinonimlarning oʻziga xos qoʻllanish xususiyatlarini oʻrganish qoraqalpoq tilshunosligi uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bolalar folklorining lugʻat tarkibidagi soʻzlarni ma'no jihatidan oʻrganganimizda, undagi ma'nolari bir-biriga yaqin keladigan soʻzlar guruhi, ya'ni sinonimlar ma'lum oʻrin egallaydi. Tilning leksika sohasida boʻlgan oʻzgarishlar sinonimlarga ham oʻz ta'sirini oʻtkazadi. Sinonimlarni akademik V.V.Vinogradov "tarixiy oʻzgaruvchan semantik kategoriya" deb, koʻrsatadi. Bunday oʻzgarishlar jamiyat hayotining oʻsib rivojlanishi bilan paydo boʻladi.

X.Abdurahmonov va N.Mahmudov: "Sinonimlar, albatta, qoʻshimcha ma'no nozikligi, emotsional va ekspressiv boʻyogʻi, qoʻllanish doirasi va bir qator shu kabi boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Ularda mavjud boʻlgan bunday xususiyatlar sinonimlarning juda katta stilistik imkoniyatlarga ega ekanligini koʻrsatadi. Sinonimlar narsa va voqea-hodisalarning eng kichik, hatto, sezilar-sezilmas nozik belgilarini, bu belgilarga boʻlgan subyektiv munosabatni va boshqalarni koʻrsata olar ekan, ular, albatta, tilning tasviriy vositalari sifatida qaraladi", deb koʻrsatadi [1;6-b.].

Qoraqalpoq tilshunosligida sinonimlarni maxsus tarzda oʻrgangan olim M.Qalandarov boʻldi. Uning sinonimlarga bagʻishlangan asarida tilimizdagi ma'nodosh soʻzlarning qoʻllanilish xususiyatlari keng tarzda oʻrganilgan [5]. Unda qoraqalpoq tili leksikasidagi sinonimlarning semasiologik farqi, leksik sinonimlar, ularning tarixiy kelib chiqishi, qoʻllanish doirasi, sinonimik qatorlar, stilistik xususiyati oʻrganilgan.

Filologiya fanlari nomzodi A.Bekbergenov oʻzining "Qoraqalpoq tilidagi leksik sinonimlarning paydo boʻlish yoʻllari" degan maqolasida "insoniyat jamiyatining rivojlanishi bilan birga, uning lugʻat tarkibi ham oʻsib, har xil oʻzgarishlarga uchrab turadi, ya'ni, til yangi soʻzlarni paydo etadi, shunday qilib, tildagi sinonimlar koʻpayib boradi", deb, koʻrsatadi [2;83-86-b.]. U tildagi sinonimlarni leksik va grammatik sinonimlar deb ikki turga boʻladi. Professor E.Berdimuratov "Hozirgi zamon qoraqalpoq tilining leksikasi" degan asarida "oʻz fikrimizni ikkinchi birovga aniq, koʻrkam va oʻtkir qilib yetkazishda sinonimlar alohida ahamiyatga ega boʻladi", deb koʻrsatadi [3]. O.Dospanov "Janubiy dialektdagi sinonimlar haqida" degan maqolasida: "sinonimlar dialekt leksikasida, shuningdek, hozirgi zamon qoraqalpoq tilida birdan paydo boʻlmay, bir qancha davrlar davomida shakllandi, tilning lugʻat tarkibining oʻsishi bilan birga, uygʻun boʻldi. Shu bilan birga, qoraqalpoq adabiy tili, uning janubiy dialekti leksikasi oʻzining lugʻat tarkibi boʻyicha qancha boy boʻlsa, undagi qoʻllaniladigan sinonimlar ham son-sanoqsiz", deb, fikr bildirgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tilning leksik tarkibi qanchalik boy, hajmli boʻlsa, til shunchalik boy rivojlangan boʻladi. Qoraqalpoq bolalar folklori tilining leksikasini har tomonlama oʻrganib, uning semasiologik xususiyatlarini, leksik tarkibini, tarixiy rivojlanish yoʻllarini til faktlari bilan har tomonlama oʻrga-

nishni asosiy masalalardan biri deb hisoblaymiz. Shuning uchun maqolani yozishda ma'lumotlarni tizimlashtirish, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Bu ishning metodologiyasini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Badiiy asar tilida o'zaro ma'nodosh bo'lgan sinonimlar katta ahamiyatga ega. Sinonimlar narsa belgisini qo'shimcha semantik-ekspressiv bo'yoqlari bilan bildiradigan ma'nodosh so'zlar qatori. Badiiy asarning asosiy tasvir obyekti – uni adabiyoti, tushunchasi, dunyoqarashi, portreti, xarakteri, ruhiy kechinmalari, psixologiyasi va uning eng nozik tomonlari bilan qo'shib ta'riflab, unga subyektiv munosabatni bildirishda, boshqa tasvirlanadigan obyektlarni – tabiatni, hodisalarni, voqealarni, hayvonot va o'simliklar dunyosini va h.k. bolalar folklorida badiiy tasvirlashda sinonimlar so'z ustasi uchun zarur vosita.

Folklor asarlardagi sinonimlarning farqlarini to'g'ri tushunish va foydalanish bolaning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bolalar sinonim so'zlarni uyg'unligiga ko'ra o'rnini topib qo'llay olishlari kerak.

Bolalar folklori tilida sinonimlar ko'p qo'llangan. Biz ularni leksik-semantik va stilistik xususiyatlariga ko'ra, quyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

1. Ma'nodosh yoki ideografik sinonimlar. Tilimizdagi sinonim so'zlar o'zining har xil ma'no ottenkasi bilan bir-biridan farq qilib turadi. Tildagi bunday sinonimlarni lingvistik adabiyotlarda ma'nodosh yoki ideografik sinonimlar deb ataladi. Ma'noviy sinonimlarni o'zaro tahlil qilishdagi asosiy vazifa ularning orasidagi umumiy o'xshashlikni ko'rsatish emas, har bir sinonim so'zning boshqalarda yo'q, faqat o'ziga xos individual xususiyatlarini tanlab ko'rsatish hisoblanadi. Bunday sinonim so'zlar ma'nolarining kengligi bilan, ya'ni keng yoki tor ma'noda qo'llanilishi bilan ham ko'zga tashlanadi. Masalan:

Quyrıǵıń nege juwan? ***Kúshim*** *kóp shıǵar! (Qumırısqa-qumırısqa, 477-b.);* ***Qarıwımdı*** *salayın. Qamshıgerlik qılayın* (Darımlar, 482-b.).

Bu misollarda "qurol" so'zi keng ma'noda qo'llanilib, u jismoniy kuch-quvvat ma'nosidan tashqari, "birlashib, ot solib" kabi qo'shimcha ma'nolarga ham ega bo'lib keladi.

Asımnıń aldı azıǵım*, Awzımdaǵı pal bópem* (Háyyiwler, 460-b.); *Apası* ***asqa*** *toyıptı, Apaq qızdı tawıptı* (Súymishler. Qız balaǵa arnalǵan súymishler, 473-b.).

Misollarda "osh" so'zi keng ma'noda qo'llanilib, u "insoniyatning kerakli narsasi, taomi, yeb-ichishi, ovqati" ma'nolarini bildiradi. "Oziq" so'zi tor ma'noda "ovqat bo'ladigan narsalar" ma'nosini bildiradi.

Quwıwshı jete almasa, quwalaw náwbetin qız bala aladı, jetse jeńiske erisedi, qarsılasın ***tutqın*** *qıladı* (Quwalamashaq, 518-b.). *Qızalaq* ***ásir*** *bolsa, ayaq oyın oynap beredi hám qosıq aytadı* (Qolgúrmek, 519-b.).

Keltirilgan misollarda "asir" so'zi keng ma'noda qo'llanilib, u "asir, bandi, erksiz" kabi bir qancha qo'shimcha ma'nolarga ega bo'lib keladi. "Tutqin" so'zi "bosh panohidan, erkidan ayrilgan, qamoqqa olingan odam" ma'nosida kelib, tor ma'noda qo'llaniladi.

2. Emotsional-ekspressiv sinonimlar. Qoraqalpoq adabiy tili leksikasidagi so'zlar emotsional-ekspressiv ma'no xususiyatiga ega bo'lib keladi. Ularda ko'pincha kamsitish, kichraytirish yoki shunga o'xshash qandaydir o'tkir ma'no sezilib turadi. Tilimizdagi ayrim emotsional-ekspressiv obrazli turdagi sinonimik qator ijobiy va salbiy ma'nolarda ham qo'llaniladi. Masalan:

Oyınbası olardıń ishinen eń ***júyrik****, eń* ***shaqqan*** *balanı "túlki" etip belgileydi. (Túlki-túlki, 517-b.). Hámmeni birdey oylaytuǵın, Aqılı artıq* ***tompaǵım-aw*** (Háyyiwler, 458-b.); *Eshkiń arıq, Qoyıń* ***semiz****. (*Qaytarmashlar, 504-b.).

Misollarda *"juyrik", "shaqqan"* so'zlari ijobiy sinonimik qatorni tuzib tursa, "do'mbog'im", "semiz" so'zlari salbiy sinonimik qatorni tuzib, emotsional-ekspressiv ma'no bildirib kelgan.

3. Uslubiy sinonimlar. Tildagi sinonimlar uslubiy jihatdan betaraf yoki aniq bir xarakterli uslubga mansub bo'lishi mumkin. Masalan:

Bir óleńim bar edi, tayǵa ketti, Tawdan túlki qaǵıwǵa, ***awǵa*** *ketti, Bir óleńim bar edi shiytkip júrgen, Talap qılıp oldaǵı* ***ańǵa*** *ketti* (Quwmıshlar, 505-b.); *Bunıń menen* ***shikar****ǵa bardım, Bunısı menen shubarǵa bardım* (Ay barmaq – abay barmaq, 477-b.).

Misollarda "ov", "ań" so'zlari uslubiy betaraf sinonim so'zlar bo'lsa, "shikar" so'zi, ko'pincha, badiiy adabiyot uslubiga xos qo'llaniladi.

Dúnyanıń arjaǵında ot kórgenmen, Pisirgen suwıq suwǵa ***et*** *kórgenmen* (Quwmıshlar, 505-b.); *Bir súriw qumırısqanı atın alıp, Barlıq* ***gósh****in tarqattı deńgelikke* (Quwmıshlar, 505-b.).

Misolda "go'sht" so'zi barcha uslubda teng qo'llanilib, uslubiy betaraflikni hosil qilsa, "et" so'zi badiiy adabiyot uslubida ko'proq qo'llanilishi bilan ajralib turadi.

Bahasın ***qassap****lar qoydı, Bahasına jetpedi, Altmısh batpan et ettim, Etin* ***etshi****ge berdim* (Ótirik óleńler, 506-b.).

Berilgan misolda “qassob” so‘zi barcha uslubga xos bo‘lsa, “etchi” so‘zi, ko‘pincha, bolalar tiliga mos qo‘llanilib, alohida uslubiy ma’noga ega holda qo‘llanilgan.

Jeti atasın bilgen er. Jeti jurttıń ***ǵamın*** *jer, Bir atasın bilgen er, Bir basınıń* ***ǵayın*** *jer (Termishler, 461-b.).*

Bu yerda “g‘ay” so‘zi badiiy adabiyot uslubiga xos bo‘lib, u “g‘am, hasrat, qayg‘u, tashvish” ma’nolarini bildirib, “g‘am” so‘ziga sinonim holda qo‘llangan.

– Júrisiń nege ***jıldam?*** (Tawlamashlar, Qumırısqa-qumırısqa, 477-b.); *Kósher bolsań, haw, bádik,* ***tezirek*** *kósh, Adamzatqa aybat shekken ayqulaqqa kósh* (Bádik darımı, 485-b.).

Ko‘rsatilgan misolda “tez” so‘zi barcha uslublar uchun tegishli bo‘lsa, “jildam” so‘zi badiiy adabiyot uslubi va publitsistik uslublar uchun xos bo‘lib keladi.

Demak, bolalar folklori tilida ma’nolari o‘zaro yaqin so‘zlar, ya’ni, sinonim so‘zlar juda ko‘p qo‘llanilib, ular tilimizning boyligini ko‘rsatuvchi asosiy leksik birliklar hisoblanadi. Bu sinonim so‘zlar bir necha sinonimik qatorlarni tuzib kelib, ularning barchasi hozirgi qoraqalpoq adabiy tiliga xos bo‘lib kelgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, folklor asarlari bolalarning bizni o‘rab turgan atrof-muhit, milliy buyumlar, oziq-ovqat haqidagi tasavvurlarini kengaytirib boradi. Bolalar folklori tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shuning uchun ularning lug‘at tarkibini, ayniqsa, ma’nolari bir-biriga yaqin sinonim so‘zlarni aniqlash bolalar tarbiyasida so‘zning ma’nolarini o‘rgatishda muhim hisoblanadi. Bolalar folklori til-da so‘zlarning bunday semantik jihatdan alohida o‘rganilishi bolalar folklorining xalqimizning milliy xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos bir turini tashkil etishi, bolalarning dunyoqarashi, ong-shuurining rivojlanishida, har tomonlama yetuk inson bo‘lib yetishishida katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Абдурахманов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. Тошкент, 1981, 59-бет.

(2). Бекбергенов А. Қарақалпақ тилиндеги лексикалық синонимлердиң пайда болыў жоллары. “Өзбекстан ИА Қарақалпақстан филиалы Хабаршысы”, Нөкис, 1963, 83–86-бетлер.

(3). Бердимуратов Е. Ҳәзирги қарақалпақ тили. Лексикология. Нөкис, “Билим”, 1994, 186-бет.

(4). Доспанов О. Түслик диалектиндеги синонимлер ҳаққында.”Өз ИАҚҚБ Хабаршысы”, Нөкис, 1965, № 4, 8–92-бетлер.

(5). Қәлендеров М. Қарақалпақ тилиндеги синонимлер. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1979, 88-бет.

(6). Қәлендеров М. Қарақалпақ тилиндеги синонимлердиң грамматикалық структуралық ҳәм лексика-семантикалық өзгешеликлери. Нөкис, “Қарақалпақстан”, 1989, 92-бет.

Аманкосова Шахноза Мырзагалиевна (Преподаватель кафедры русского языка и литературы Университета Маъмун; E-mail: tauriel9797@gmail.com; ORCID: 0009-0009-5622-068X)

ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖЕНСКОГО САМОСОЗНАНИЯ В КАРАКАЛПАКСКОМ РОМАНЕ ЭПОХИ МОДЕРНИЗАЦИИ

Аннотация. *Исследуется трансформация женского самосознания в романе Т.Каипбергенова «Дочь Каракалпакии». Посредством пристального чтения, сопоставительного и нарратологического анализа рассматриваются сопротивление Джумагуль семейному насилию, её дневниковые записи и общественная деятельность. Выделяются взаимосвязанные механизмы изменения: осознание собственного достоинства, письменная оценка пережитого и ответственность перед другими. Отношение героини к принуждению раскрывает её способность к самостоятельному нравственному суждению. Вклад исследования состоит в совместном рассмотрении дневника, публичной речи и практик заботы. Результаты применимы при изучении каракалпакского романа и женских образов.*

Ключевые слова: *каракалпакский роман, женское самосознание, модернизация, Джумагуль, дневник, образование, нравственный выбор.*

MODERNIZATSIYA DAVRIDAGI QORAQALPOQ ROMANIDA AYOLLARNING O‘ZLIGINI ANGLASHIDAGI O‘ZGARISHLAR

Annotatsiya. *Maqolada T.Qaipbergenovning «Qoraqalpoq qizi» romanida ayolning o‘zligini anglashi qanday o‘zgarishi o‘rganiladi. Yaqindan o‘qish, qiyosiy va narratologik tahlil yordamida Jumagulning oilaviy zo‘ravonlikka qarshiligi, kundalik yuritishi va jamoat faoliyati tahlil qilinadi. O‘zgarishlarning o‘zaro bog‘liq mexanizmlari sifatida o‘z qadrini anglash, tajribani yozma baholash va boshqalar oldidagi*